



# NAVOIY VILOYATI NUROTA TUMANI HOKIMI F A R M O Y I S H I

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-13-42, nurota@nv.uz

2023 - yil 9 - fevral

21-5-74-F/23

Nurota tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-sonli Farmoni, viloyat hokimining 2023-yil 30-yanvardagi 9-5-0-F/23-sonli farmoyishi ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuning 6, 25, 27-moddalariga asosan,

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-sonli Farmoni (keyingi o‘rinlarda-Farmon deb yuritiladi), viloyat hokimining 2023-yil 30-yanvardagi 9-5-0-F/23-sonli farmoyishi ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

tumanda jamoat xavfsizligini ta’minlash masalalarini muvofiqlashtiruvchi ishchi guruh tarkibi (keyingi o‘rinlarda - tuman ishchi guruhi) 1-ilovaga muvofiq;

tumanda 2023-yil davomida jamoat xavfsizligi konsepsiyasi doirasida amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman ishchi guruhi (F.Imomov) zimmasiga jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yangi joriy etilayotgan boshqaruv tizimini samarali yo‘lga qo‘yish hamda jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha asosiy vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini tashkil etish bo‘yicha shaxsiy javobgarlik yuklansin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (F.Imomov) boshqa aloqador tashkilotlar bilan birgalikda Farmon mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirish bo‘yicha keng qamrovli targ‘ibot tadbirlarini olib borsin.

5. Tuman ishchi guruhi a‘zolari tomonidan Farmon ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha o‘zaro axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yilsin.

6. Ushbu farmoyish ijrosini ta’minlash va nazorat qilish tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari F.Imomov hamda tuman ishchi guruhi a‘zolari zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



A.Fayziyev

Nurota tuman hokimining  
2023 yil 9 fevraldagi  
21-5-74-F/23-son farmoyishiga  
1-ilova

**Tumanda jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalarini muvofiqlashtiruvchi ishchi guruh**

**TARKIBI**

<b>№</b>	<b>F.I.SH</b>	<b>Ish joyi va lavozimi</b>
<b>1.</b>	<b>F.Imomov</b>	Tuman IIB boshlig'ining o'rinbosari-Jamoat xavfsizligi xizmati rahbari - <b>ishchi guruh rahbari</b>
<b>Ishchi guruh a'zolari</b>		
<b>2.</b>	<b>G.Bobomurodova</b>	Tuman hokimining o'rinbosari - Oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i
<b>3.</b>	<b>Sh.Vafoev</b>	Tuman hokimining o'rinbosari
<b>4.</b>	<b>S.Sanoev</b>	O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Nurota tumani bo'limi boshlig'i
<b>5.</b>	<b>H.Mavlyanov</b>	Favqulodda vaziyatlar tuman bo'limi boshlig'i
<b>6.</b>	<b>E.Ochilov</b>	Tuman DXX bo'limi boshlig'i
<b>7.</b>	<b>M.Hakimov</b>	Tuman prokurori o'rinbosari
<b>8.</b>	<b>A.Shokirov</b>	Tuman Mahalla va Nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi
<b>9.</b>	<b>B.Xidirov</b>	Tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig'i
<b>10.</b>	<b>H.Boqiev</b>	Axborot kommunikatsiyalari va texnologiyalarini rivojlantirish tuman bo'limi boshlig'i

**Izoh:** *Ishchi guruhi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning o'rniga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki tegishli funksiyalar zimmasiga yuklatilgan shaxslar kiritiladi. Yangi tuzilmalar tuzilganida esa, tegishli funksiyalarni ijro etuvchi muassasa ishchi guruh a'zosi bo'ladi. Zaruratga ko'ra ishchi guruh tarkibiga jamoat xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etuvchi boshqa subyektlar ham jalb qilinishi mumkin.*

Nurota tuman hokimining  
2023 yil 9 fevraldagi  
21-5-74-F/23-son farmoyishiga  
2-ilova

**Tumanda 2023-yil davomida jamoat xavfsizligi konsepsiyasi doirasida amalga oshiriladigan ishlar  
bo'yicha**

**YO'L XARITASI**

№	Amalga oshiriladigan ishlar	Muddati	Ijro uchun mas'ullar
1.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoni asosida, tumanda jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi sub'ektlar zimmasiga yuklatilgan vazifalarning ijrosi yuzasidan har chorakda kamida bir marotaba muhokama qilish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi korxonalar va tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarni belgilab borish.	2023 yil har chorakda	Tuman hokimligi, jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi barcha sub'ektlar.
2.	Jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan davlat dasturlarini ijrosini ta'minlash va amalga oshirish yuzasidan tuman chora-tadbirlari belgilash. Yong'in xavfsizligini ta'minlash tizimlari, shoshilinch tibbiy xizmatlari, jamoat joylaridagi kommunikatsiya, muhandislik-texnik vositalar hamda boshqa tizimlarga qo'yiladigan yagona huquqiy talablarga rioya etish chora-tadbirlarini nazorat qilish va amalga oshirish. Tumandagi jamoat joylarida qurilish normalariga, texnik ekspluatatsiya qoidalari, kommunikatsiya, ekologiya, sanitariya, epidemiologiya standartlari va talablariga rioya qilinishini nazorat qilish.	2023 yil har chorakda	Tuman hokimligi, jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi barcha sub'ektlar.
3.	Yo'l harakatini tartibga solish va mavjud transport infratuzilmasidan oqilona foydalanish choralari ko'rish. Jamoat xavfsizligini bevosita ta'minlovchi tashkilotlarni moddiy jihatdan ta'minlash, ularning xodimlarini ijtimoiy himoya qilish darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarini amalga oshirish.	2023 yil har chorakda	Tuman hokimligi, jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi barcha sub'ektlar
4.	Jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklar yuzaga kelganda, ularga chek qo'yish bo'yicha tadbirlar yuzasidan umumiy boshqaruvni ta'minlash. Jamoat xavfsizligini ta'minlash holati haqida keng jamoatchilikni muntazam ravishda xabardor qilib borish, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida qabul qilingan tashkiliy-ustlubiy ishlarni ijrosini ta'minlash.	2023 yil har chorakda	Tuman hokimligi, jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi barcha sub'ektlar
5.	O'ziga birlashtirilgan jamoat joylarida, shu jumladan tuman markazidagi ommaviy tadbirlarda, istirohat bog'lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etish hamda vakolati doirasida favqulodda vaziyatlarda va favqulodda holat e'lon qilingan joylarda jamoat xavfsizligini ta'minlash.	2023 yil har chorakda	Tuman hokimligi, jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi barcha sub'ektlar
6.	Favqulodda vaziyatlar va yong'inlar yuzaga kelishining oldini olish hamda profilaktika tadbirlarini tashkil etish choralari ko'rish, aholi hayotiga, sog'lig'iga yoki mol-mulkiga xavf-xatar tug'ilganda kompleks yordam ko'rsatish, favqulodda vaziyatlar xavfi yuzaga kelganda yoki sodir bo'lganda ular to'g'risida aholini o'z vaqtida ogohlantirish va xabardor qilishni tashkillashtirish.	2023 yil har chorakda	Tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi, jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi barcha sub'ektlar
7.	Favqulodda vaziyatlarning oldini olish, shuningdek, fuqaro muhofazasi va yong'in xavfsizligini ta'minlash tadbirlarini tashkil etish. Tabiiy va texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlarning oldini olish, bartaraf etish, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda boshqa tashkilotlarning faoliyatini, ushbu maqsadlar uchun moliyaviy, oziq-ovqat, tibbiy va moddiy-texnik resurslarning davlat xazira fondlarini shakllantirishga doir ishlarini muvofiqlashtirish va ularning samarali hamkorligini yo'lga qo'yish.	2023 yil har chorakda	Tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi, jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi barcha sub'ektlar
8.	Tabiiy, texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda iqtisodiyot ob'ektlari faoliyatining barqarorligini oshirish sohasidagi ilmiy-texnik va innovatsion siyosat olib borishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda ishtirok etish va maqsadli ilmiy-texnik dasturlar ijrosini ta'minlash.	2023 yil har chorakda	Tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi, jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi barcha sub'ektlar
9.	Tumanda "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyilining to'laqonli va samarali joriy etilishini tashkil etish, oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish. Mahallalardagi jamoat xavfsizligini ta'minlash, shu jumladan huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolarda qonunga nisbatan hurmat va itoat hissini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2023 yil har chorakda	Tuman Mahalla va Nuroniylarni qo'llab quvvatlash bo'limi, tuman Oila va xotin qizlar bo'limi, jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi barcha sub'ektlar

10.	Oila institutini mustahkamlash bo'yicha, eng avvalo "Sog'lom oila – sog'lom jamiyat" g'oyasini hayotga tadbiq etishga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish, notinch va muammoli oilalarga manzilli ko'mak berishni tashkil etish. Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga oid davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularni ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash.	2023 yil har chorakda	Tuman Mahalla va Nuroniylarni qo'llab quvvatlash bo'limi, tuman Oila va xotin qizlar bo'limi, jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi barcha sub'ektlar
11.	Mahallalarda huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalarida ichki ishlar organlari, boshqa tashkilotlarning o'zaro hamkorligini mustahkamlash. Tumandagi mavjud "Qizil" va "Sariq" toifadagi mahallalarni "YAshil" toifaga o'tkazish bo'yicha ishlarni amalga oshirish.	2023 yil har chorakda	Tuman Mahalla va Nuroniylarni qo'llab quvvatlash bo'limi, tuman Oila va xotin qizlar bo'limi, jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi barcha sub'ektlar
12.	Tumanda aholining sanitariya-epidemiologik xavfsizligini ta'minlashga doir davlat siyosatini amalga oshirishda ko'maklashish, mazkur yo'nalishda davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirish. Jamoat joylarida aholi sog'ligini saqlashni ta'minlash, aholini sog'lom turmush tarziga undash, fuqarolarda o'zi va boshqa odamlar salomatligi uchun javobgarlik hissin tarbiyalash bo'yicha ishlarni amalga oshirish.	2023 yil har chorakda	Tuman Tibbiyot birlashmasi, jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi barcha sub'ektlar
13.	O'tkir alkogolli mastlik holatida jasoat joylarida bo'lgan, mustaqil harakat qilish yoki adashmay yo'l topish qobiliyatini yo'qotgan hamda o'zining harakatlari bilan jamoat xavfsizligiga tahdid soladigan shaxslarga mastlik holatini barataraf etish maqsadida tibbiy yordam ko'rsatish choralarini amalga oshirish. Alkogolizm, giyohvandlik, toksik moddalarni iste'mol qilish, o'zlariga xavf tug'diradigan boshqa kasalliklarga chalingan shaxslar, shuningdek, ruhiy kasallarni tibbiy ijtimoiy reabilitatsiya qilish ishlarini amalga oshirish. Ijtimoiy xavfli kasalliklarga chalingan, alohida toifalardagi shaxslar uchun belgilangan sanitariya normalari va qoidalariga hamda jamoat joylarida bo'lish uchun cheklolarga rioya etilishini nazorat qilish.	2023 yil har chorakda	Tuman Tibbiyot birlashmasi, jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi barcha sub'ektlar